



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

“TARIX” KAFEDRASI

KURS ISHI

[MAVZU: Turkiston muxtoriyatini xalq tomonidan kutib olinishi](#)

2013/2014 O'QUV YILI



Bajardi: III-kurs “301” guruh talabasi Muxtorova D.

Tekshirdi: dot. S.R.To'rayev.

Toshkent – 2014.

Mundarija

Kirish	3
& 1. Turkistonda muxtoriyat uchun kurash harakatining yuzaga kelishi.....	5
& 2. Turkiston xalqining muxtoriyatchilik harakatiga xayrihohligi.....	8
& 3. Turkiston muxtoriyati ozodlik va milliy davlatchilikning tiklanishi uchun kurash.....	13
& 4. Turkiston muxtoriyati mahalliy xalqning milliy ozodlik harakatini ifodasi sifatida	16
Xulosa	19
Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati.....	20

Mavzuning dolzarbligi.

O'zbekistonning mustaqil rivojlanish yo'liga qadam qo'yishi ota bobolarimizning ozodlik va erk uchun uzoq kurashi tarixini qayta idrok etishga milliy ozodlik harakati mafkurasining shakllanish jarayaniga davlat mustaqilligiga erishishni taminlagan omillar sifatida katta ijtimoiy qiziqish uyg'otmoqda. Ozodlik va mustaqillik g'oyalarini o'zida mujassamlashtirgan va o'zbek xalqi tarixida o'chmas iz qoldirgan muhim voqealardan biri bu Turkiston muxtoriyatidir. Bugungi kunda Turkiston muxtoriyati uchun kurash tarixini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy jamoatchilik etiborini ko'pdan o'ziga jalb etib kelayotgan muxtoriyat tarixi hozirda nafaqat ilmiy balki amaliy va hatto siyosiy nuqtai nazardan qiziqish uyg'otishi tabiiy chunki davr o'sha-o'sha yillar voqealariga qayta baho berishni taqozo etmoqda. Mavzuning dolzarbligi ham anashundaki o'sha davr voqealarini xolis yoritilgan holatini xalqqa yetqazishdir. Inson o'tmishi bilan tirikdir. „Inson uchun tarixdan judo bo'lish –hayotdan judo bo'lish demakdir”¹

Mavzuning o'rganilish darajasi Rossiyada 1917-yil oktyabr to'ntarishi tufayli muhim siyosiy ijtimoiy voqealar ro'y bergani kabi Turkistonda ham siyosiy hayot niyatda jadallashdi. Muxtoriyat vujudga kelishi faoliyatini o'rganishga bag'shlagan asarlar juda ko'p. Xususan Mustaf Cho'qay o'g'li Zaki Validiy, Saidakbar A'zimxo'jayev, Alimoza D, Rashidova D, kabi tarix olim va olimalarimiz asarlarida Muxtoriyat tarixi keng yoritilgan.² Mustaqillikdan so'ng nashr etilgan tarixchi olimlarimiz N. Jo'rayev Sh. Karimov Doniyorov Shoniyoz muallifligida yozilgan kitob va darsliklarda muxtoriyat hukumati va faoliyatiga keng ajratilgan³.

Bizga taqdim etilgan ma'lumotlar orasida xulosa chiqarish biz tarixchilar oldida turgan muhim vazifadir.

Mavzuni maqsad va vazifalari.

Mavzuni o'rganishdan maqsad uzoq yillar davomida qoralanib kelgan Turkistonni mustaqil yo'lida jon fido etgan, Muxtoriyachilar nomini oqlash noto'g'ri talqin etilgan tarixga xolis bahoni berishdan iboratdir. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda oldimizga quyidagi vazifalarni belgilash:

--- Muxtoriyathukumati o'lkada vujudga kelgan demokratik an'analarga mos davlat ekanligini o'quvchilarga yoritib berish.

--- Mustabit tuzum tomonidan muxtoriyat va taziqlarini fosh etish.

¹. Karimov I.A "Tarixiy hotirasiz kelajak yo'q" T; sharq 1998 y sahifa-5.

². Mustaf Cho'qayev "Istiqlol jallodlari" T; sharq 1992 y.

³. Jo'rayev N, Karimov Sh " O'zbekiston tarixi " T; sharq 2011 y

---Muxtoriyatni vujudga kelish jarayonini faoliyatini zavolga yuz tutish sabablarini o'rganib xulosa chiqarish va boshqalar.

Mavzuni ilmiy va amaliy ahamiyati.

Mavzuni ilmiy ahamiyati shundaki o'rganilish jarayonida 30dan ortiq adabiyot va internet matryallaridan foydalanildi. Mazkur malumotlar mavzu ishiga jalb qilindi va yaxlit tarzda taxlil etildi. Bu mavzuning ilmiy ahamiyatini ko'rsatadi. Mavzu ichidan oliy va o'rta maxsus talim muassasalarida "O'zbekiston tarixi" fanida qo'shimcha manba sifatida foydalanish mumkin. Bu ishning amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Mavzuning metodologik asoslari.

Bugungi kunda barcha fanlar singari tarix fani ham haqqoniy va xolisona yoritilishi bilan rivojlanib bormoqda ushbu mavzuni yoritishda ilmiy va haqqoniylik metodologik asos qilib olinib prezidentimizning Islom Abdug'aniyevichning asarlari va nutqlari birinchi o'rinda metodologik manba bo'lib xizmat qiladi.

§ 1 Turkistonda muxtoriyat uchun kurash harakatini yuzaga kelishi.

1917-yil boshlarida Petrogradta bo`lib o`tgan voqealar ta`sirida Turkistonda yangi jamiyat kurtaklarini shakllantirish uchun harakat boshlanib ketdi. Turkistonga muxtoriyat maqomini berish g`oyasi nafaqat demokratik ziyolilar orasida hatto oddiy odamlar o`rtasida ham ommalashgan edi. 1917-yil mart-aprel oylarida o`lkasining siyosiy uyg`onishida tub burilish davri bo`ldi. Turkiston jadidlari Mahmudxo`ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov Ubaydulla Xo`jayev, Sadriddin Ayniy, Usmon xo`ja Mustafo Cho`qay Muhammadjon Tanishboyev Sherali Lapin Ahmad Zaki Validiy, To`gon Obidjon Mahmudov o`lkada yangi tashkil etilgan “Shuroiy Islomiya” (1917-yil mart) “Sho`roi Ulamo” (1917-yil iyun) Turon jamiyatlari va Turk odami markaziyat (Federalistlar) firqasining (1917-yil iyul) “Ittifoqi mustiymini (1917-yil sentabr) siyosiy partiyalarini tuzilishida yetakchi rol o`ynaydilar⁴.

Siyosiy partiyalar ayniqsa “Sho`roi Islomning jadidlari yetakchi harakati sifatida o`lkaning ko`p qismlarida o`z faoliyatini olib bordi. Biroq Toshkentda Mustahkam o`rnashib olgan sovet komissariati qizil qo`shin kuchigi tayanib milliy markaz “deb hisoblangan.” Markaziy Sho`roi Islom” harakatiga ochiqdan ochiq to`squinlik qildi. Shundan keyin milliy markaz o`z harakatini Qo`qondan turib davom etishiga qaror qildi⁵.

1917-yil 26-noyabrda Qo`qon shahrida o`lka musulmonlari IV favqulotda syezdi ish boshladi. Mandat komissiyasi azosi T Norbo`tabikov Suezd qatnashchilari tarkibi haqida axborot berdi. Bunga ko`ra Farg`onada-100, Sirdaryodan-22, Samarqandda-21 Buxorodan-4, Kasbiyortidan-4, vakil qatnashayotgan edi.<sup>6</sup> Shuningdek viloyat vakillaridan tashqari suyezdda “So`roi Islom”ning Sho`roi ulamolari, musulmon xarbiylari kengashi o`lka yahudiylari jamiyati (Paoliy Leon) mahalliy yaxudiylar vakillari qatnashdilar.⁷

Jadidlar yetakchisi M. Behbudiy o`z chiqishida syezdning huquqiy jihaddan qonuniyligi haqida shunday degandi “Syez qarorlari shuning uchun ham katta mavqeiga sazovorki unda Turkistonni ovropalik aholisi ham qatnashmoqda”⁸.

⁴ . Alimova D, Karimov H “O`zbekiston tarixi” T; sharq 2006 y 47-sahifa.

⁵ . “O`zbekistonning eng yangi tarixi” II kitob T; sharq 2000 y 18-sahifa.

⁶ “Ulig` Turkiston” 1917-yil 8-dekabr

⁷ .A'zamxo'jayev s “Turkiston muxtoriyati” T; sharq 2011 y 19-sahifa.

⁸ Jo`rayev N Karimov Sh. “O`zbekiston tarixi” T. “Sharq” nashriyoti 2011-yil S-19.

Yetakchini so'zlaridan ham anglab olishimiz mumkinki muxtoriyat a'zolari o'kada yashayotgan turli millat va xalqlarni urf- odatlarini va milliyligini etiborga ogan holda o'zoldilariga maqsqd qilib qo'ygan edilar.

Siyosiy partiyalar va ular tomonidan dasturiy hujjatlar qabul qilinishi –Tukistonda milliy harakatini keng quloch yoyganidan dalolat berar edi.Ziyolilar turkistonni fedirativ Rossiya respublika tarkibida xududiy jihatdan muxtor deb elon qilish uchun keng harakat boshladilar. 28-noyabrda tashkil topayotgan mazkur davlaning nomi “Turkiston muxtoriyati”deb ataladigan b'o'ldi.⁹

Turkiston muxtoriyatchilari tarkibi o'lka halqlari taqdiriga befarq qaramaydigan kishlardan iboratligini ular tashkel etgan qurultoylarda ko'tarilgan masalalardan bilib olishimiz mumkin. Xususan IV qurultoyda o'lka iqtisodni rivojlantirish bo'ycha bir qator masalalar ko'tarilgan edi. Angliya hukumatidan harbiy yordam bilan birgalikda iqtisodiy yordam olish ham takidlandi. Non mahsulotlarni paxta va junga almashtirish borasida bir fikirga kelindi.¹⁰

Qurultoyda qatnashchilar “Janubiy sharqiy ittifoqqa qo'shilish borasida fikr bildirildi. Chunki o'lka shmoliy kavkaz va Orenburgdan g'alla maxsuloti o'tardi va ayni chog'da Turkiston ularga paxta sotishi mumkin edi' Nixoyat 27-noyabr kunidagi majlisi ham munozaralari baxsdan so'ng bo'g'usi davlatni etiborga olib Ittifoqqa kirish haqida qaror qilindi”.¹¹

Muxtoriyat a'zolari o'lka hayotini izga solishdi, jonbozlik ko'rsatdilar. Bu borada Ubaydulla Xo'jayev bosh bo'lgan ichki ishlar vazirligi xalq militsiyasini tashkil etilishi katta voqea bo'ldi. Pul islohati o'tkazildi.

Muhtoriyat o'z mathiyasi hamda bayrog'ini yaratdi. Shunisi e'tiborliki muxtoriyatni bir qator mamlakatlar tan oldi. Shu bois muxtoriyat hukumati yordam so'rab horijiy mamlakatlarga muroojat etdi va ulardan ham moddiy ham harbiy yordamlar oldi.

1918-yil yanvarida Toshkent jome masjidida yig'inida nutq so'zlagan SHukurxon xazratlari “muxtoriyatchilar yolg'iz emasdur ularni Angliya ximoya qilayotir” degan edi.Muxtoriyatni Angliya,Fransiya.Germaniya,Turkiya va boshqa davlatlar qo'llab quvvatlagan edilar.¹²

⁹ “Ulug' Turkiston 1917-yil 8-dekabr “Turkestanskiy vestnik”1917-yil 1-dekabr.

¹⁰ Azamxujayev S “ Turkiston mustaqilligi va birligi uchun kurash sahifalaridan” T.”Fan” 1996-y S-32

¹¹ Hasanov M” Kokandanskaya avtonomiya I nekotorie eyo uroki””obshestvennie nauki v o'zbekistani”,1990.N-2 S-43.

¹² Qosimov Yo'lchi “Qora koz oynak bilan yozilgan tarix” Namangan 1993-y s-28

O'zbekiston prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovni quyidagi muloxazalariga etibor qarataylik; "XX asr boshidagi istiqlolchilik va marifatchilik nomoyondalari boylik uchun shon-shuxrat uchun maydonga chiqishmadi. Maxmudxoja Bexbudiy, Munavvar qori, Fitrat, Tavollolar maktablari ochib xalqni ezgu yo'lga ozodlikka iste'dodga qarshi kurashib o't bilan o'ynashayotganini buning uchun ayovsiz jazolanishlarini yaxshi bilishgan, bilib turib manashu yo'ldan borishgan. Chunki vijdonlari iymonlari shunga davit etgan"¹³

Darhaqiqat yo'l boshchilar o'kada yashayotgan xalqlar manfaati uchun harakat boshladilar. Muxtoriyat uchun kurash ozodlik hurfikirlilik istiqlol uchun kurash darajasiga ko'tarilgan edi. Muxtasar qilib aytganda muxtoriyat uchun kurash harakati zamon talabi sifatida Ko'rib o'tganimizdek petrogradta 1917-yil bo'lib o'gan voqealardan so'ng siyosiy hayotda muhim o'zgarishlar davri boshlandi. Milliy ziyolilar, jadidlar, Turkiston o'lkasi, xalq ozodligi uchun siyosiy maydonda jo'shqin harakatlar boshlandi. Mahalliy halqning ezgu umid va istaklarining ifodachisi sifatida Turkiston muxtoriyati vujudga kela boshladi. Turkiston muxtoriyat jadidlarining ijtimoiy harakati siyosiy faolligi tasirida yuzaga keldi va o'lka xalqlari taqdirida muhim rol o'ynadi.

¹³ Karimov I.A "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" T. "O'zbekiston "1998 y S-47

§ 2 Turkiston xalqining muxtoriyatchilik harakatiga hayrihohligi.

Qo'qon shahrida Turkiston musulmonlarining favqulotda IV qurultoyi bo'lib o'tganligi va unda Turkiston muxtoriyatini tashkil etilgani to'g'risidagi habar butun o'lka mehnatkashlari ommasi o'rtasida keng tarqaldi va katta qiziqish uyg'otdi. Muxtoriyat xalqning ko'p yillik orzu umidlari ro'yobga oshiruvchi kuchdek xalq ommasi ko'z o'ngida namoyon bo'lgan edi. Muxtoriyatni qo'llab- quvvatlab ko'p joylarda miting va namoyishlar uyishtirildi. Jumladan 1917-yil 6-dekabrda Toshkent shahridagi Eski Jovada, Beklarbegi jome masjidi da uyishtirilgan miting ahamiyatidir. Unda 60ming kishilik fuqorolar qatnashdilar.¹⁴

Mazkur miting tshkilotchilari "Sho'roi Islomiya", "Sho'roi Ulamo"jamiyat a'zolari edi.O'sha davr nasriy manbasi "Ulug' Turkiston"gazitasini yozishicha "Masjidning sahni va tomlari odam bilan liq to'lgan ".Gazita miting qatnashchilarining Turkiston muxtoriyatini qo'llab- qo'vvatlab Muxtoriyatdan boshqa hukumatni tan olmaslik to'g'risida qaror qabul qildi. Ko'rib o'tganimizdek oddiy xalqdan tortib ziyoli qatlamga qadar muxtoriyat manosini to'g'ri anglagan holda unga ergashganlarr. Toshkentda bosqa hududlarda ham muxtoriyat ni olqishlab namoyishlar bo'lib o'tdi. 1-dekabrda Namangan uyizdida 100ming kishilik namoyish bo'lib o'tdi. Unda namoyishchilar bayroqlariga "Yashasin muxtoriyat" deb yozilgan so'zlar hilpirab turgan.¹⁵ 7-dekabrda □Qo'qon shahridagi 42-jamoat tasgkilotlari nomidan yig'igan vakillarning qo'shma majlisi bo'lib o'tdi. Unda qabul qilingan qarordako'p millionli Turkiston xalqiga tabriklar yo'llandi.(Ulug' Turkiston 1917-yil 13-dekabr)¹⁶

Samarqandda bo'li b o'tgan viloyat syezdida ham kasbiy orti viloyatiga bo'lib o'tgan syezdlarida ham Turkiston muxtoriyatiga qo'shilish va uni har doim har qanday hjolada qo'llab-quvvatlash masalasi ilgari surildi va shu borada bir qator qarorlar qabul qilindi. Demak Turkiston muxtoriyati o'z g'oyalari va maqsadlari bilan ko'pchilikka maqul kelganligi yuqoridagi malumotlardan ham bilib olishimiz mumkindir. Milliy mtbuotda Turkistonning marifatchilari siyosiy jamoat arboblari o'z maqolalarida muxtoriyatni tabrikladilar. Ular orasida Mahmudxo'ja Behbudiy Miormuhsin Muhammad o'g'li

Abdulhamid Cho'lpon ,Islom Shoahmedov, Munavvar Qori va boshqalar bor edi. Ular o'z maqolalarida muxtoriyatga bo'lgan cheksiz muhabbatini ishor etdilar. 13-dekabr esa muxtoriyat hukumat azolarini xalqqa murojatnomasi e'lon qilindi. Unda jumladan

¹⁴“ O'zbekistnning yangi tarixi”II kitob T."Sharq" 2000 y S-51.

¹⁵ “O'zbekistonning yangi tarixi”III kitob T."Sharq"2000 y S-52

¹⁶ A'zamxo'jayev "Turkiston muxtoriyati" T."manaviyat "2000 y S-44

quyidagilar qayd etigan edi. “Turkistonning barcha fuqarolari musulmon, ruslar, ishchilar, askarlar va dehqonlar o’lkada yashab turgan. Barcha elat shahar va remestvo boshqarmalari barcha davlat jamoat xususiy birlashmalari Turkiston xalq hokimiyati atrofida birlashib ko’mak berishga chaqiradi. Shu muqaddimani o’zidan malumki Muxtoriyat hukumatini barcha harakati demokratiyaga asoslangan edi. Aynan shuning uchun ham balki muxtoriyat boshqa xalqlar tomonidan qo’llab – quvvatladi. Shaharning ruslar yashaydigan qismi ham namoyish tufayli gavjum edi. Erta tongdan bu yerdan ham juda katta guruh “Turkiston o’lkasiga muxtoriyat” shiori yozilgan bayroq bilan kela boshladi. Bu shahardagi rus jamoatchiligi vakillari edi. Ular Shayhontohur masjidi tomon yurib musulmonlarni tabriklamoqchi edi. Harbiylar ularni o’tkazib yuboradi. Ular tarkibiga yaxudiylar armanlar ham qo’shiladi. Namoyish tinch shaklda o’tayotgan bir vaqtda Toshkent sovetidagi bolsheviklar shaharda qurolli kuch bilan tartib o’rnatishga buyruq berdilar. Oqibatda namoyish ishtirokchilari o’qqa tutildi, eski shaharlik 16 kishi anashu to’qnashuv qurboni bo’di. Muxtoriyat hukumati rahbarlari bu voqealar yuzasidan maxsus murojaat qabul qildilar, unda quyidagilar takidlangan edi. “Biz xalq majlisi va Turkiston muxtoriyati muvaqqat

hukumat a’zolari chin yurakdan tavsif bildiramiz va Turkistonlik

musulmonlarni ezgu his tuyg’ularini haqoratlovchi bu voqealarga qarshi chiqamiz. Ana shu munosabat bilan bizlar mamlakatda tartib va osoyishtalik o’rnatilishi uchun zaruriy choralar ko’rilishi yo’lida barcha kuchlarimizni ishga solamiz hozircha esa Turkiston xaqidan sobetlik va xotirjamlik ko’rsatishlarini so’raymiz. Bu og’ir kunlarda musulmonlarning tinchlikni saqlab qolishlari nihoyatda muhimdir. (Ulug’ Turkiston 1917-yil 20-dekabr)¹⁷

Ko’rib o’tganimizdek muxtoriyat hukumati harakatiga xalq ommosi muxtoriyat ham xalq ommasining hayoti va tinchligiga befarq bo’lmagan muxtoriyatni xalq ommosi tomonidan kuchli qo’llab – quvvatlashi o’lka xalq komissarlari kengashi raisi lavozimida bo’lgan Holesovni tahlikagasolib petrogrdda xalq komissorlari kengashiga telegramma jo’natishga undadi.

Telegrammada “Qo’qonda reaksiya kuchlar muxtoriyat e’lon qildi. Vujudga kelgan muxtoriat hukumati Turkiston proletar ommasi tomonidan tan olingan holda bor kuchi bilan muxtoriyatni elon qilishga tayyorlanmoqda. Shu yil 13-dekabrda Muhammad payg’ambar tug’ulgan kundan Toshkenda Muxtoriyat elon qilindi”. Bu telegrammaga javoban Petrogradta “Joylarda hokimiyat siz o’zingizsiz demak o’zingiz buyruqlarni ishlab chiqing”¹⁸ degan mazmunda javob keladi. Mana shu oddiy telegramma

¹⁷ “Ozbekiston sovet mustamlakachiligi davrida” T. “Sharq” 2000 y S-61.

¹⁸ Azamxo’jayev S. “turkiston mutoriyati” T. “Manaviyat” 2000y S-36

mazmunida ilg'ab oldimki sovet hukumati mustamlaka hududlaridagi nozirlariga favqulotda ulkan vakolat va huquqlar bergan. Shuni ham takidlash kerakki siyosiy guruhlar partiyalarning muxtoriyatga bo'lgan munosabati bir xil emas edi. Toshkentda Jome masjidida bo'lib o'tgan yig'inda Toshkent ulamochilar "Muvvaqat Muxtor hukumatini tanqid etib ular shu vaqtgacha bizning manfaatimiz uchun hech narsa qilolgan yo'q"deya uni qo'llashdan bosh tortdilar. Bu habar "Ulug' Turkiston" ro'znomrasining yozishicha musulmonlar orasida keng tarqalib Turkiston muxtoriyatining masalasida fikrlarni bilishga olib kelgan islom huquqshunoslari "Fuqorolik jamiyati 8-yanvar kuni o'zining maxsus majlisida Toshkent ulamochilarini bu hatti harakatini aqlga sig'maydigan ish " deya baholadi¹⁹.

Toshkent sho'ro hukumati Turkiston muxtoriyatini o'z dushmani deb bildi va qanday bo'lmasin uni yo'qotish payida bo'ldi. U Toshkentdagi sho'ro komissarlari Bolshevik P.G. Poltoratskiyning musulmonlar ishchi askar va dehqon deputatlarning favqulodda I qurultoyida so'zlagan nutqi mazmunidan ham payqab olish mumkin. "Biz kambag'allar muxtoriyatiga qarshi emasmiz, lekin boylar muxtoriyatiga qarshimiz. Biz muxtoriyat uchun kurashar ekanmiz burjuaziya qo'lidagi hukumatni o'zimiz uchun tortib olganimiz yo'q. biz ishchi sinfi va kambag'allar uchun tortib oldik. Biz musulmon mehnatkashlarni o'z tarafimizga qo'shilishlari uchun ishlab keldik va ishlayveramiz"²⁰. Lekin muxtoriyatni ezgu niyatlarga yog'rilganini bilgan ko'pchilik Poltaratskiyni yo'lg'on gaplariga uchmadilar. Boshidanoq qurultoy ochilishini Turkiston o'lka harbiy sho'rosi rahbari Orif Klevleyev qutladi. Muvaqqat milliy majlisi nomidan Islom Shoahmedov va boshqalar ham qurultoyni tabrikladilar. Qurultoy qatnashchilari Turkiston xalq muxtoriyati va millat majlisiga topshirish taklifi davosi bilan chiqdilar. Qurultoyda Turkiston muxtoriyatini Qo'llab quvvatlash borasida qaror qabul qilingandan so'ng Poltoratskiy va unga qo'shilganlar guruhi qurultoyni tashlab chiqib ketdilar. Bundan tashqari "Ulug' Turkiston" gazetasini yozishicha Yettisuv qirg'izlari milliy tashkilotni ba'zi vakillari Turkiston muxtoriyatiga qo'shilishni istamadilar. Albatta Yettisuv musulmonlarini bo'linishdan iborat tutgan yo'li Turkiston muxtoriyati uchun kurash javhasi kuchlarini kuchsizlantirdi.

Toshkent sho'rosidagi qizil saltanat mustamlakachilari o'z targ'ibot va tashviqotlarida Turkiston muxtoriyatini keng ommaga aksilinqilobchi burjua millatchi hukumat deya tushundilar va bu borada ularga Nasha gazetasi qo'l keldi. Toshkent sho'rosi Turkiston muxtoriyatini yakka lab qo'yish maqsadlarini ko'zlab barcha imkoniyatni ishga soldi. Toshkent shahar dumasini tarqatdi. "Turkistanskiy vistnik "

¹⁹ Azamxo'jayev S. Turkiston muxtoriyatining T:-Manaviyat 2000 45 -sahifa

²⁰ Manba: 10-sinf darsligi Sharq T:-2000 26-sahifa

gazetasini yopib yopib qo'ydi va hokazo. Sho'ro hukumatini shunga o'xshash tadbirlari Turkiston muxtoriyatiga nisbatan amaliy va rejali hujum boshlaganidan dalolat berar edi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidladimki adabiyotlarni o'rganish natijasida Turkiston muxtoriyati har e'lon qilgan qarori hamda hatti harakatlari demokratik ruhda bo'lgan. Aynan shuning uchun bu hukumat xalq ommasi tomonidan xayrixoxlik bilan qo'llab quvvatlagan. Ammo sho'ro hukumatining avtoritar mohiyatiga qarshi bu hukumat ta'qib ostiga olindi va yo'q qilindi, lekin Muxtoriyat milliy ozodlik harakatini ramzi sifatida tarixda qoldi.

§3. Turkiston muxtoriyati : Ozodlik va milliy davlatchilikni ta'kidlanishi uchun kurash.

Manbalarni o'rganib shu xulosaga keldimki, "Turkiston muxtoriyati" milliy demokratik davlatchilikning dastlabki tajribasi bo'lgan. Muxtoriyat a'zolari ham xalq orasidan chiqqan ziyoli qatlam vakillari edilar. Muxtoriyat a'zolarini ham yagona maqsad birlashtirar edi. Bu Turkiston o'lkasini ozod va hur ko'moqlik edi. Turkistonda yashab kelgan xalqlarga millatidan qat'iy nazar demokratik erkinliklar berilgani muxtoriyatni demokratik prinsiplarga qat'iy rioya etganidan dalolatdir. Xususan, xalq majlisidagi o'rinlarni uchdan bir qismi 18 kishi Yevropa millatiga mansub xalq vakillariga ajratildi²¹. Bu hol muxtoriyatchilarning insof diyonat va imon asosida haqiqat, adolat va demokratuyaning yuksak cho'qqisida turib faoliyat ko'rsatganliklarini yorqin namunasidir. Ma'lumki, jadidlar islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni taraqqiyot va rivojlanishga faqat tinchlik yo'li bilan parlament orqali erishishni mo'ljallagan edilar. Ular o'zbek xalqining o'ziga xos milliy xususiyati (mentaliteti) uning milliy samimiyligi bag'rikengligi, sabr toqati, bardoshi va chidamini ham hisobga olgan holda tinch yo'l bilan hokimyatni qo'lga olishga intilgan edilar. Ular xalqni "uygotish" va "hurlikka erishmog'i" uchun qadim qadimdan dunyo tan olgan manaviyatini va madaniyatini tarixni o'rgatish va tarixiy xotirasini tiklash va ulug'lash yo'lidan bordilar. Bu juda ham to'g'ri tanlangan taktika edi. Ze'ro yurtboshimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek "Manaviyatni tiklashi tug'ilib o'sgan yurtini o'zini boshqalardan ham sezmay boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga albatta tarixiy xotira kerak"²².

Oldingi bo'limda Turkiston muxtoriyatini omma tomonidan qo'llab quvvatlanib borilgani oddiy xalqni muxtoriyatga nisbatan xayrixohligi ta'kidlab fikr yuritgan edi. Muxtoriyatni otashin kuchlari o'zbek adabiyoti va she'riyatining zabardast vakillari bo'lgan: A. Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'li va boshqa namoyondalar muxtoriyatni ulug'lab maqola va she'rlar yozishganiga tarix guvoh. A. Fitrat "Muxtoriyat" maqolasida dunyoga yangi kelgan muxtoriyatga nisbatan otashin mehr his va hayajon tuyg'usini quyidagi so'zlarda ifodalaydi: Turkiston muxtoriyati Temur xoqonning chin bolalari yonida Turkistonlik tupchak turklari orasida mundan ug'urli, mundan muqaddas, mundan suyunchli bir so'zli borligiga ishonmayman. Ellik yildan beri ezildik, tahqir etildik, qo'limiz bog'landi,

²¹ A'zamxo'jayev S. "Turkiston muxtoriyati" T:-Fan 1996-yil 33-sahifa

²² Karimov I.A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" T:-Sharq 1998-yil 8-sahifa

tilimiz kesildi, molimiz talandi. Hoqon shahrinda to'plangan Turkiston qurultoyi 27-noyabrning milliy Laylatulqadrimiz bo'lgan yarim kechasida Turkiston muxtoriyatini e'lon qildi. Muxtoriyatni endi saqlamoq kerakdur"²³. Alloma Fitratning "Muxtoriyatni endi saqlamoq kerakdur" degan so'zlari bejizga emas. Chunki demokratik qoidalarga asosan tuzilgan Turkiston muxtoriyati bilan zo'ravonlikka asoslangan bolsheviklar hukumati o'rtasidagi siyosiy kurash nihoyatda keskin tus olgan edi. Turkiston muxtoriyati o'z oldida qo'ygan maqsadiga erishish uchun ozodlik va milliy davlatchilik yo'lidagi barcha xavf-xatar va tahdidlarga qaramay olg'a bordi.

Muxtoriyat tashkil etilganining ilk kunlaridanoq ya'ni 1917-yil bahorida Turkistonning birligi va yaxlitligi tomon muhim qadam tashladi. Tarixdan ilk marta Butun Turkiston miqyosida musulmon qurultoyi chaqirilib, unda tub xalqlarning muxtoriyat tomon qat'iy intilishi o'z an'analari urf odatlari va turmush tarzini izchil turib himoya qilishi aytili. Bu maanfatlarning ifodachisi bo'lgan Milliy markaz Turkiston musulmonlari Markaziy kengash tashkil etildi²⁴. Ko'rib o'tkanimizdek Muxtoriyat hukumati har bir qabul qilgan qarorini amaliy ijrosini ta'minlash uchun astoydil harakat qilgan. Xavfsizlik va aholi o'rtasida tinchlikni saqlash borasida ham bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Bu borada U. Xo'jayev bosh bo'lgan IIV xalq militsiyasining tashkil bo'lishi katta voqea bo'ldi. Muxtoriyat o'z bayrog'I va o'z madhiyasini yaratdi²⁵. Umuman olganda muxtoriyat hukumati davlatchilik qurishda barcha qonun qoidalariga rioya etgan holda tuzilgan edi.

Xulosa qilib aytganda Turkiston ilk milliy davlatchiligimizda demokratik prinsiplarga qat'iy amal qilgan hukumat edi. Muxtoriyatni tarixiy ahamiyati shundaki, ommaviy huquqiy ongini o'sishiga xizmat qildi. Xalq o'z navbatida muxtoriyatga ozodlik va milliy davlatchilikni tiklash yo'lidagi kurashida doimiy hamroh bo'ldi, qo'lab quvvatladi. Muxtoriyat mahalliy tub aholini orzu umidlari ifodachisi edi. Muxtoriyatni esa o'ziga dushman deb bilgan bolshevikistik rejim uni qonga botirdi, lekin xalq qalbidan va xotirasidan o'chira olmadi.

²³ Jo'rayev N. Karimov Sh. "O'zbekiston tarixi" T:-Sharq 2011-y 52-53-sahifa

²⁴ Manba:"O'zbekiston tarixi" 10-sinf darslik T:-Sharq 2006y 19-sahifa

²⁵ Jo'rayev N. Karimov Sh. "O'zbekiston tarixi" T:-Sharq 2011 y 49-sahifa

§4. Turkiston muxtoriyati mahalliy xalqning milliy ozodlik harakatini ifodasi sifatida.

Oldingi bo'limlarda ko'rib o'tganimizdek Turkiston muxtoriyatini tashkil etilishi va ozodlik harakatining ifodachisi sifatida yuzaga keldi. Turkiston muxtoriyati a'zolari nafaqat mahalliy tub aholi ma'nfatlarini balki o'lkada yashayotgan boshqa millatlar taqdirini ham o'ylab ish yuritdilar. Shuning uchun ham muxtoriyat aholi tomonidan yaxshi mos boshqaruv va qonunlarga tayangan davlat qurish 1917-yildayoq, nafaqat ziyolilar balki, oddiy aholi orasida ham keng harakat tusini olgan edi. Jadidchilik 1917-yilda ma'rifatchilik harakatlaridan siyosiy harakat darajasiga allaqachon ko'tarilgan edi. O'sha 1917-yilning o'zida 4 marta Butun Turkiston musulmonlari qurultoyi o'tkazildi. 1917-yilning 16-23 aprelida Toshketda bo'lgan I qurultoyida demokratik Rossiya tarkibida Turkiston muxtoriyatini tashkil etish g'oyasi olg'a surilgani va bu g'oya Turkiston xalqlarining o'z milliy davlatchiligini tiklash yo'lidagi dastlabki qadami edi²⁶. Ellik yillik Chor istibdodi mahalliy xalqlar urf odati, madaniyatini poy-mol etishga xalqni ozodlikka bo'lgan intilishini bo'g'ib kelgan edi. Turkiston o'lkasi xalqlari doimo ozodlik hurlik uchun kurashib keldilar. Chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosatiga xalq o'zining milliy qahramonlari Abdurahmon Oftobachi, Nomoz Pirimqul o'g'li, Qurbonjon Dodhoh, Jo'rabek, Bobobek boshchiligida doimo ozodlik uchun kurashib keldi. Keyinchalik bu ozodlik uchun bo'lgan kurashlar ma'rafatparvarlik tusini oldi. Jamiyatda milliy mafkurani shakllantirish xalqni ma'rifatli qilish va shu yo'l bilan ozodlikka olib chiqish ma'rifatparvar jadidlarning bosh maqsadi edi. milliy mafkura bu yurtboshimiz tabiri bilan aytganda "O'tmish va kelajak o'rtasidagi ko'prikdir"²⁷. Xalqqa shonli tarixini eslatish orqali kelajakka dadil qadam bosihga undash nihoyat mevasini bergan edi. Bu xalqning milliy ozodlikka bo'lgan harakatining natijasi Turkiston muxtoriyati edi. Shu tarzda Turkiston muxtoriyat hukumati yuzaga kelmasdan ancha oldin jamiyatning keng qatlamlari vakillari, ilg'or ziyolilar bu harakatda faol qatnashib uning poydevorini yaratishga zamin hozirladilar. Yangi vujudga kelayotgan muxtoriyat hukumati tashkil etilishida va faoliyatida ham faqatgina xalqning ziyoli va oddiy vakillariga tayandi, hukumron tabaqa ma'nfatlariga xizmat qilmadi. Buni Turkiston muxtoriyatining muvaqqat hukumat nomidan uning a'zolari M. Tinishboyev, M. Cho'qayev, U. Xo'jayev, Yu. O'gayev, S. Gersfeld imzosi ostida xalqqa qarata e'lon qilgan murajaatida ham

²⁶ Alimova D. Karimov R. H. "O'zbekiston tarixi" T:-Sharq 2006-yil 18-sahifa

²⁷ Karimov I. A. "Jamiyatimiz mafkurasini xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin" T:- O'zbekiston 1998-y 14-sahifa

yaqqol ko'rish mumkin. Murojaatnoma "Ulug' Turkiston" gazetasida 1917-yil 8-dekabrda e'lon etilgan²⁸.

Murojaatda Turkiston o'lkasi hududida yashovchi barcha millatlar teng huquqli ekanligi ta'kidlandi. Muxtoriyat hukumati Turkiston xalqini oziq ovqat bilan taminlash choralari ko'rishni mahalliy millatlar huquqlarini himoya qiluvchi tadbirlar belgilashni xalqning ozodlik birlik hurriyat tenglikka bo'lgan intilishini qo'llab quvvatlashni o'z zimmasiga olgani murojaatda alohida ta'kidlandi²⁹. Muxtoriyat hukumati a'zolari mumkin qadar tinchlik yo'li bilan ozodlikka erishish yo'lidan bordilar. Muxtoriyat millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash masalasini demokratik yo'l bilan hal etishga bel bog'lagan. Xalq va uning ilg'or ziyolilari zakovati va irodasi zaminida vujudga kelgan edi. Tabiiyki zo'ravonlik va shovinizm bilan qurollangan yangi mustabid bolsheviklar rejimi milliy mustaqillikka intilishning har qanday ko'rinishiga qarshi chiqdi. Sinovdan o'tgan usul xalqni aldash shavqatsiz qirish, talash bu gal ham ishga solindi va ezgu niyatlar katta maqsadlar bilan yuzaga kelgan xayotbaxsh g'oyalar kurtakligidayoq ezib tashlandi. Turkiston muxtoriyatiga qarshi bolsheviklar tomonidan qilingan harakat Turkistonliklarni bolsheviklar rejimiga qarshi o'z ona vatanlarini himoya qilish uchun qurol olishga majbur etdi. Bu qurolli harakatning mohiyati milliy ozodlik an'alarining davomi bo'lib istiqloq uchun kurash edi. o'sha davrda ana shu umumxalq kurashining mohiyati "Turkiston- Turkistonliklar uchun" "Turkistonning Rossiyadan ozodligi uchun" va shu kabi siyosiy talablarda o'z ifodasini topdi³⁰.

Muxtoriyat xalq hokimiyati edi, u xalqdan tuzilgan hukumat edi. ularning ozodlikka bo'lgan intilishi albatta mustabid tuzum maanfatlariga umumanto'g'ri kelmasdi. Turkiston tub aholisining o'z ijtimoiy ozodlik yo'lining o'zi belgilashi va mustaqil milliy davlatchiligini o'rnatishga urinishlari qurol kuchi bilan to'xtatildi."Mliy hududiy avtonomiya" ning Lenincha modeli zo'rlab tiqishtirildi³¹. Oxir oqibatda sivilizatsiyalashgan demokratik rivojlanish imkoniyatlari yo'qqa chiqarildi. Muxtoriyat hukumati bolshevistik tuzum tomonidan yo'q qilingan bo'lsada Turkiston xalqi tarixida asosiy o'rinlardan birini egallab keldi.

Xulosa o'rnida ta'kidlar edimki Turkiston muxtoriyati tub yerli xalqlar davlatchiligi tarixida yangi bosqich bo'lib afsuski, juda qisqa 72 kun umr ko'rdi. Ammo shu qisqa vaqtda ham demokratik prinsiplarga mos keladigan davlatning poydevori yoritildi. Xalqni qo'llab quvvatlash, islohotlar yo'li bilan Turkiston iqtisodiy salohiyatini

²⁸ Jo'rayev N. Karimov Sh. "O'zbekiston tarixi" T:-Sharq 2011-y 47 -sahifa

²⁹ Shu manba 48-sahifa

³⁰ O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida 2-kitob T:-Sharq 2000 y 68-sahifa

³¹ A'zamxo'jayev S "Turkiston muxtoriyati" T:-Manaviyat 2000 162-sahifa

yuksaltirish milliy qo'shin tuzib aholi osoyishtaligini ta'minlash borasida ijobiy ishlar qilindi. Demokratiyani har qanday holati bilan hisoblashmaydigan bolsheviklar hukumati muxtoriyatni yo'q qildilar, tub xalqni yana qaramlik botqog'iga botirdilar. Xalq yana chor tuzumidan battarroq bo'lgan bolshevistik rejim girdobiga tushib qoldi. To mustaqilligimizga erishganimizga qadar Turkiston tuprog'ida mustabid tuzumga harakatlar bir zum bo'lsada to'xtamadi. Biz azaliy orzuimiz mustaqil va obod, ozod vatanda teng huquqli inson bo'lib yashashga nihoyat erishdik. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek ” Endigi vazifa orzu umidlari haqqi avlodlarimizga sizni bizning farzandlarimizga butun dunyo bilan teppa-teng bo'ylashadigan buyuk O'zbekistonni meros qilib qoldirmoqlikdir”³². Bu yo'lda biz yoshlar ham sobit qadam turmog'imiz lozim.

³² Karimov I. A. “Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmay ””O'zbekiston milliy istiqlol iqtisod, siyosat, mafkura”. T:-Sharq 1996 y 214-218-sahifa

Xulosa

Turkiston muxtoriyatining vujudga kelish jarayoni uning faoliyati zavolga yuz tutish sabablarini adabiyotlar doirasida o'rganib shu xulosaga keldim. Turkiston muxtoriyati millatlarning o'z taqdirini o'zi belgilash vazifasini hal etishga bel bog'lagan xalq irodasi va ilg'or ziyolilarning ko'tarinki hatti harakatlari zaminida vujudga keldi. Tabiiyki zo'ravonlik shovinizm bilan qurollangan yangi mustabid bolsheviklar milliy mustaqillikka intilishning har qanday ko'rinishiga qarshi bo'lgan xalqni ozodlik yo'liga boshlagan unga o'zligini tarixini tanitishga uringan. Muxtoriyat hukumati mustabid tuzum tomonidan yo'q qilindi. Bu harakatning boshida turgan ilg'or hur fikrli ziyolilar "xalq dushmani" degan soxta nomlar bilan badnom etildi. Muxtoriyat hukumati vujudga kelgandanoq dastlabki kunlarda tub xalqlar maanfatini himoya etishni o'ziga muhim vazifa sifatida belgilab oldi va bu yo'lda o'g'ishmay Muxtoriyatni amalga oshirgan islohotlar amaliy tadbirlari tahsinga loyiqdir. Xalqni to'kmasdan islohotlar yo'li bilan ozodlikka olib chiqish g'oyasi muxtoriyatchilar maqsadini asosini tashkil etganligi hukumatni tashkil etgan ziyoyilarni nafaqat odil siyosatchi balki insonparvarlik g'oyalarini o'zida mujassam etgan insonlar ekanligidan dalolat beradi. Bu insonlar taqdirini kengroq o'rganish va o'zimizning xolisona baho berish imkoniyatimizga faqat mustaqillik tufayli erishdek impiriyasining inqirozi zamonning uzilgan rishtalarini yana tiklashga imkon berdi. Bugungi kunda suverin o'zbekiston mustaqillik va milliy tiklanish yo'lidan shaxdam odimlamoqda. O'lkadagi muxtoriyatchilik harakati ishtirokchilarining vatanparvarlik jasoratlari O'zbekistonliklarning hozirgi avlodlari uchun ilhombaxsh misol bo'lib xizmat qilmoqda. Turkiston muxtoriyati amalga oshirilmagan maqsadlar bizning kunlarda aniq tarixiy mazmun bilan boyimoqda. Tarixni yanada chuqurroq o'rganish mustaqil O'zbekistonning har bir fuqarosining burchi bo'lishi kerak deb o'ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO'YXATI.

1. President asarlari.

- 1.1. Karimov I.A “O'zbekiston butuk kelajak sari” T:Sharq 1998 y.
- 1.2. Karimov I.A “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” T:O'zbekiston 2011.
- 1.3. Karimov I.A “Bizdan ozod va obod vatan qolsin”T: O'zbekiston 1996.
- 1.4. Karimov I.A “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir” T:O'zbekiston 1996.
- 1.5. Karimov I.A “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q” T:O'zbekiston 1998.

2. Aynan shu mavzuga bag'ishlangan asarlar va manbalar.

- 2.6. Ziyoyeva D “Turkiston milliy ozodlik kurashi” T: 2000.
- 2.7. A'zamxo'jayev S “Turkiston muxtoriyati” T:Ma'naviyat 2000.
- 2.8. Cho'qayev M “Istoqlol jallodlari (1917-yil xotiralari)” T: 1993.
- 2.9. Alimova D, Rashidova D “Mahmudxo'ja va uning tarixiy tafakkuri” T:Akademiya 1999.
- 2.10. A'zamxo'jayev S “Turkiston mustaqilligi va birligi uchun kurash sahifalaridan” T:Fan 1996.
- 2.11. Doniyorav , Shoniyozov “Muxtoriyat qismati” “Sharq yulduzi” 1991 12-son 160-sahifa.
- 2.12. Karimov Sh “Qafasdagi qush orzusi” T:Fan 1991.
- 2.13. Sodiqov H “Hurriyatdan muxtoriyatgacha” “Fan va turmush” 1993 y 2-son.

3. Mavzini yoritishdagi qo'shimcha manbalar.

- 3.14. Rajabov Q “O'zbekiston tarixi” T:Sharq 1994.
- 3.15. “O'zbekistonning yangi tarixi” T:sharq 2000 y II tom.
- 3.16. Shamsiddin R “O'zbekiston tarixidan materiallar” Andijon 2004.

- 3.17. Jo'rayev N "O'zbekiston tarixi" T:Sharq 2010.
- 3.18. Haydarov M "Turkiston tarixi (1917-1924-yil)" T:2000.
- 3.19. Alixonto'ra Sog'unliy "Turkiston qayg'usi" T:2000.
- 3.20. Qosimov B "Milliy uyg'onish" T:2000.
- 3.21. Fitrat "Tanlangan asarlar" T:2002.
- 3.22. Qosimov Y "Qora ko'z oynak bilan yoziygan tarix" Namangan 1993.
- 3.23. Safarov G "Колониарная революция" Gogizyat 1921.
- 3.24. Ergashev B.X "к вопросу о млабоухорских" "история СССР"